

Telegram Bot Yaratish Xizmati — Qo'llanma

1 Botning Maqsadi

Botning nima maqsadda ishlashi aniqlab olinadi: savdo, buyurtma, o'quvchilar ro'yxati, xizmat ko'rsatish, kalkulyator yoki boshqa maxsus vazifalar.

2 Kerakli Funksiyalar

Botda bo'lishi kerak bo'lgan funksiyalar belgilanadi: menyular, tugmalar, ma'lumotlar bazasi, to'lov tizimi, rasm/video qabul qilish, fayl generatsiyasi (Excel, PDF), admin panel va boshqalar.

3 Dizayn va Menyu Tuzilishi

Mijoz menyular tuzilishini belgilaydi: tugmalar nomi, bo'limlar, rasmlar dizayn kerakmi-yo'qmi. Agar mijozda g'oya bo'lmasa, dizayn taklif qilib beriladi.

4 Kerakli Matnlar

Bot ichida chiqadigan matnlar: xush kelibsiz matni, bo'limlar uchun izohlar, aloqa ma'lumotlari. Istasa mijoz matnni o'zi beradi yoki professional variant tayyorlab beriladi.

5 Logo yoki Rasm (Ixtiyoriy)

Botni ko'rinishini yaxshilash uchun logo, banner va brend ranglari tavsiya etiladi.

6 Adminlar Ro'yxati

Botni boshqaradigan shaxslarning Telegram ID yoki username ma'lumotlari olinadi.

7 To'lov Tizimi (Kerak bo'lsa)

Click, Payme yoki Oson API ma'lumotlari: Merchant ID, API kaliti, kompaniya nomi.

8 Botni Qayerga Joylash

Bot 24/7 ishlashi uchun hosting kerak bo'ladi: AlwaysData, VPS, Railway yoki botni joylab berish xizmati.

Yakuniy Izoh

Ushbu qo'llanma orqali Telegram bot yaratish jarayonida mijozdan kerak bo'ladigan barcha ma'lumotlar aniq ko'rsatilgan. Xizmatni boshlashdan oldin aynan shu ma'lumotlar olinadi.